

**ABDULLA AVLONIY PEDAGOGIK MEROSINING ZAMONAVIY
PEDAGOGIKADA TUTGAN O‘RNI****Yuldasheva Nodira**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti Gumanitar fanlar fakulteti 4 – bosqich talabasi

ANATATSIYA: Ushbu maqolada zamonaviy pedagogikani rivojlantirishda milliy pedagogikadan foydalanishning samaradorligini oshirish muhim vazifalardan biri ekanligini e’tiborga olgan holda, ta’lim tizimini yangilashda milliy merosimizni o‘rganish va uni pedagogik tafakkur iste’moliga olib kirish zarurligi haqida so‘z yuritiladi. Zamonaviy ta’lim – tarbiya jarayonida milliy merosning ma’naviy-ma’rifiy zaminlariga tayanish zaruriyatini bugungi davr taqazo etmoqda. Shu bilan birga maqolada milliy pedagogikadan zamonaviy yangilanayotgan ta’lim tizimida samarali foydalanish, hamda Abdulla Avloniy pedagogik qarashlarini keng joriy etishning foydali jihatlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Abdulla Avloniy, pedagogika, ta’lim, tarbiya, ilm, maktab, darslik, axloq, gazeta, teatr.

ABSTRACT: In this article, taking into account that one of the important tasks is to increase the effectiveness of the use of national pedagogy in the development of modern pedagogy, it is necessary to study our national heritage and bring it into the use of pedagogical thinking in the process of updating the educational system. Today's era emphasizes the need to rely on the spiritual and educational grounds of the national heritage in the process of modern education. At the same time, the article sheds light on the effective use of national pedagogy in the modern educational system, as well as the wide introduction of Abdulla Avloni's pedagogical views.

Key words: Abdulla Avloni, pedagogy, education, training, science, school, textbook, morality, newspaper, theater.

Bugungi kunda yoshlarimizning nafaqat ilmi, balki yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo‘lishi bilan birga ilmiy salohiyatini namoyon qilib Vatanimiz ravnaqiga hissa qo‘shmoqda. Yurtboshimiz Oliy Majlisga murojaatnomasida ham yoshlarning ta’lim-tarbiyasiga to‘xtalib o‘tganlar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida:— “Biz o‘z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug‘ maqsadni qo‘ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug‘beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta’lim va tarbiyani rivojlantirish, sog‘lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g‘oyamizning asosiy ustunlari bo‘lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo‘lida yoshlarimiz o‘z oldiga katta marralarni qo‘yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko‘mak berish barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo‘lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi. Shu maqsadda “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan, ta’lim-tarbiya tizimidan boshlanadi”, degan g‘oya asosida keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshiramiz”. [1]

Zamonaviy pedagogikani rivojlantirishda milliy pedagoglarning ta’lim va tarbiyaga bo‘lgan g‘oya va qarashlaridan foydalanish zaruriyatga aylanib bormoqda. XX asr

zamonaviy o'zbek pedagogikasining asoschisi, o'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi faniga tamal toshi qo'ygan mutafakkir Abdulla Avloniy faoliyati uning pedagogika sohasiga qo'shgan hissasi har tomonlama taxlil etishni talab etadi. Abdulla Avloniy faoliyati davomida zamonaviy pedagog va metodistlarni yetishtirdi. Uning pedagogika sohasiga qo'shgan hissasi nihoyatda beqiyosdir. Pedagogik usul vazifasini bajaruvchi ifodali o'qish natijasida asar voqealari, mazmuni, g'oyasi o'quvchilar ko'z o'ngida gavdalanadi.

Abdulla Avloniy odamlarni xulq xatti-harakat nuqtai nazaridan ikki guruhga bo'ladi: biri yaxshi xulqli kishilar, ikkinchisi yomon xulqli kishilardir. U bunday deydi: "Axloq ulamosi insonlarning xulqlarini ikkiga bo'lmishlar: agar nafs tarbiyat topib, yaxshi ishlarni qilurga odat qilsa, yaxshilikka tavsiya bo'lib, — yaxshi xulq agar tarbiasiz o'sib, yomon ishlaydurgan bo'lib kesa, yomonligiga tavsiya bo'lib — yomon xulq atalur"[2]

Avloniyning pedagogik qarashlarining muhim qismi "tajriba orqali ta'lim" konsepti edi. U ta'limning talabalar uchun kelajakda qarshi turishlari kerak bo'lgan muammolarga tayyorlash bilan birga, hayotdagi murakkabliklarni ko'rib chiqish va hal qilishga yordam beradigan ko'nikmalarni va bilimlarni rivojlantirishning ahamiyatini kuzatishga e'tibor berdi. Bu maqsadda u o'rgatish jarayoniga amaliyotlarni, rivojlanayotgan masalalarni qo'shishni ham tadbiq qildi. Boshqa muhim jihatlar Avloniyning o'qitish uslubida o'qituvchi tomoshabin va yo'l-yo'riqnoma sifatida ishlatilishining ahamiyati edi. U o'qituvchilar faqat ma'lumotlar bo'yicha bir narsa ko'rsatuvchilar emas, balki talabalarining rol modellari va munosabatlariga ta'sir qiluvchi, hayotdagi maqsad va yo'nalishlarini shakllantiradigan insonlar bo'lishi kerakligiga ishonch bildirdi. Pedagogik qarashlariga qo'shimcha ravishda, Avloniy falsafa, psixologiya, ijtimoiy fanlar va inson madaniyati to'g'risidagi muhim masalalarni ko'rib chiqdi. Avloniyning pedagogik qarashlariga qaraganda, talabalar bilan yaxshi munosabatni o'rnatish, ularni o'rganishga qiziqtirish, o'zlarining o'zini baho qilish, insoniy xususiyatlarni tushuntirish va talabalarni o'rgangan ma'lumotlarni amalda qo'llashga qaratilgan muvaffaqiyatli pedagogik usullardandir.

Abdulla Avloniyning fikricha o'z faoliyatini endigina boshlayotgan o'qituvchilar va doimiy izlanishda bo'lgan tajribali o'qituvchilar ham tarbiyachilik maxoratiga zamin yaratuvchi quyidagi faoliyatlarni bilishi kerak:

- Har qanday vaziyatda o'quvchining ichki va tashqi dunyosini to'g'ri tushunish;
- Tarbiyalanuvchilarga ishonch va talabchan bo'lish;
- Tarbiyaviy vaziyatni har tomonlama puxta baholay olish qobiliyati;
- Ziddiyatli tasodifiy xolatlarda ikkilanmasdan to'g'ri qaror qabul qilish;
- Tarbiyada ta'sir etishning turli usullaridan foydalana olish;
- O'quvchilar ongida erkinlik va tashabbuskorlikni o'z fikr mulohazalarni qo'rqmasdan bayon qilish ko'nikmalarini tayyorlash;
- Har bir o'quvchining yashirin ijobiy fazilatlarini ko'ra olish va takomillashtirish;
- O'quvchilarni ijtimoiy kelib chiqishiga qarab toifalarga ajratmaslik, bir xil munosabatda bo'lish.

Ayni zamonda murabbiy ta'lim va tarbiya uzviy bog'liq ekanini ta'kidlaydi: "Dars ila tarbiya orasida bir oz farq bor bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kapidur"[3]– deydi. Abdulla Avloniy fikricha, inson butun borliqning ko'rki va sharafidir. Inson o'z go'zalligi va murakkabligi bilan koinotdagi barcha mahluqotlardan afzaldir. Butun mavjudot insonga xizmat qilishi kerak, chunki inson

uning sohibidir. Insonning aql bor, u shu aql yordamida ilm egallaydi, ilm tufayli dunyoni boshqaradi. Mutaffakkir o'qituvchining ta'limiga, iste'dodi, dunyoqarashining kengligiga, shaxsiyatiga katta e'tibor beradi.

Xulosa qilib aytganda, Abdulla Avloniyning yoshlarga o'rnak bo'ladigan jihatlari juda ko'p. Jumladan, doimo o'z xalqiga munosib bo'lishga harakat qildi. Savodsiz bolalarni o'qitishdek sharaflilik ishga qo'l urgan jadidchi o'zining pedagogik qarashlari bilan xalqning madaniyati va marifatli bo'lishiga yordam bergani bilan o'z maqsadini amalga oshiray oldi. Bugungi yangilanatyotgan pedagogika jarayonida Abdulla Avloniyning ilmiy merosidan foydalanish samarali natija berishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev. Jadidlar g'oyasi — Yangi O'zbekiston strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohang. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishidagi nutqi. 2023. 22-dekabr.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. 2004. 34 bet
3. Avloniy A. Tarjimai xol. Tanlangan asarlar. 2-jild. T., "Ma'naviyat", 1998. 117-bet.
4. Olim Oltinbek. Jadidlar. Abdulla Avloniy: risola. / Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. 158 – bet.